

ISSN 2181-9505
Doi Journal 10.26739/2181-9505

Philosophy and Life

FALSAFA VA HAYOT • ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ

2024 № 1 (24)



ISSN 2181-9505
Doi Journal 10.26739/2181-9505

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi
O'zbekiston falsafa jamiyati

Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Международный научно-исследовательский центр Имам Бухари
при Кабинете Министров Республики Узбекистан
Философское общество Узбекистана

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Imam Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers
of the Republic of Uzbekistan
Philosophical Society of Uzbekistan

**FALSAFA VA HAYOT
XALQARO JURNAL**

**ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ**

**PHILOSOPHY AND LIFE
INTERNATIONAL JOURNAL**

2024 № 1 (24)

Jurnal bir yilda 4 marta nashr qilinadi.
Журнал выходит 4 раза в год.
The journal is published 4 times in a year.



Toshkent

SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI

Muxamedjanova Lalixon Ashuralievn

Zamonaviy jamiyatda ma'naviy begonalashuv va uni bartaraf etish yo'llari.....9-16

Nadirova Zoyira Payanovna

Intuitsiya kognitiv tafakkurda qaror qabul qilishimizga ko'maklashuvchi omil sifatida.....17-20

TA'LIM VA FAN FALSAFASI

Tulenova Gulmira Jandarovna

Ta'lim tiziminining samaradorligi va sifatini oshirishning asosiy omillari.....21-29

Abdullayev Temur Bobir o'g'li

Tafakkur uslubi transformatsiyasida ongning falsafiy xususiyatlari30-35

Usmanov Muhridin Abdimuratovich

Idrokning davr va obrazlarni tasavvur qilishdagi roli36-43

TARIX FALSAFASI VA FALSAFA TARIXI

Arziqulov Elboy Azim o'g'li

O'zbek xalq eposlaridagi ma'naviy qadriyatlarni barkamol avlod ma'naviy-ma'rifiy kamolotiga ta'sirini oshirishning zamonaviy usullari va vositalari.....44-50

Xidirov Mustaf

Ilmiy maktablarning shakllanishi va ularning ilmiy faoliyatni tashkil etishdagi amaliy ahamiyati51-58

Qodirov Javlonbek Abdusattor o'g'li

Daniel Dennetning ong nazariyasi: keng qamrovli tahlil59-67

DUNYO MADANIYATI VA DINIY AN'ANALAR

Nishanova Ozoda Djalolitdinovna

Go'zallik kategoriyasi va uning o'zbek etnomadaniyatidagi o'rni68-76

Ruziyeva Ruxsora Xodiyevna

Vaqtning qiymati – inson umrining eng oliy qadriyati.....77-83

Usmanov Muhridin Abdimuratovich

O'zbekiston Milliy universiteti doktoranti

E-mail: usmanov@gmail.com

(Toshkent, O'zbekiston)

IDROKNING DAVR VA OBRAZLARNI TASAVVUR QILISHDAGI ROLI

Annotatsiya. Mazkur maqolada gnoseologiyaning asosiy kategoriyalaridan biri bo'lgan idrok tushunchasining mazmuni, darajalari, davr va obrazlarni tasavvur qilishda uning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, bilish jarayonining boshqa bosqichlari, tasavvur hamda tushunchaning o'zaro nisbati, ijtimoiy hayotimizdagi o'рни va roli tahliliy bayon qilingan. Mamlakat taraqqiyoti va xalqning farovonligini ta'minlashda shaxslararo idrok etish mexanizmining zarurati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: sezgi, idrok, tasavvur, tushuncha, obraz, makon va zamon, harakat, perseptiv harakatlar, appersepsiya, idrok tizimlari, vestibulyar, adekvat aks ettirish, idrokning konstantligi.

РОЛЬ ВОСПРИЯТИЯ В ПЕРИОДАХ ИЗОБРАЖЕНИЙ И ИЗОБРАЖЕНИЙ

Аннотация. В данной статье описывается значение понятия восприятия, которое является одной из основных категорий гносеологии, его уровни, период и значение в представлении образов. Также аналитически описываются другие этапы познавательного процесса, соотношение воображения и понимания, их место и роль в нашей социальной жизни. Выявлена необходимость механизма межличностного восприятия в обеспечении развития страны и благополучия народа.

Ключевые слова: ощущение, восприятие, воображение, понятие, образ, пространство и время, действие, перцептивные действия, апперцепция, системы восприятия, вестибулярный аппарат, адекватное отражение, постоянство восприятия.

THE ROLE OF PERCEPTION IN IMAGING PERIODS AND IMAGES

Annotation. This article describes the meaning of the concept of perception, which is one of the main categories of epistemology, its levels, period and its importance in imagining images. Also, other stages of the cognitive process, the relationship between imagination and understanding, their place and role in our

social life are analytically described. The need for the mechanism of interpersonal perception in ensuring the development of the country and the well-being of the people has been revealed.

Key words: sensation, perception, imagination, concept, image, space and time, action, perceptual actions, apperception, systems of perception, vestibular, adequate reflection, constancy of perception.

KIRISH.

Falsafa fanining “Bilish nazariyasi” hamda “Mantiq” sohalarida juda ko‘plab ilmiy-amaliy kategoriyalar qo‘llaniladi. Xususan, sezgi, idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, tushuncha, hukm va xulosa kabi asosiy terminlar. Bu kategoriyalar gnoseologik hamda logik atamalar bo‘lib, amaliy psixologiya, statistika, sotsiologiya fanlarida ham keng qo‘llaniladi, shuningdek, inson bilish jarayonining asosiy bosqichlarini va unsurlarini tashkil etadi. Borliqning atributi hisoblangan “harakat”ning ham biologika, jismoniy, aqliy, kimyoviy, fizik, ijtimoiy harakat kabi shakllari mavjud bo‘lib, inson o‘z hayotida juda ko‘p sonli harakatlarni amalga oshiradi, uning butun hayoti uzluksiz harakatlardan iborat. Tug‘ilgandan to o‘limgacha u doimiy harakatlanuvchi mashinaga o‘xshaydi, doimo nima bilandir band bo‘ladi, mudom xayolot vositasida bo‘lsada harakat qiladi. Bu harakatlar siklida pertseptiv deb ataladigan maxsus harakatlar mavjud.

Har bir inson noyobdir, shuning uchun ham inson madaniyati va san’ati juda xilma-xildir. Biroq, idrok etishdagi farqlarga qaramay, har bir inson o‘z rivojlanishida muayyan harakatlarni amalga oshirish bilan birga keladigan muayyan bosqichlarni o‘tadi. Bu harakatlar soha vakillari tomonidan keng o‘rganilgan va sezgi deb ataladi.

MATERIAL VA METODLAR

Idrok, uning turlari, darajalari, idrok tizimining inson va jamiyat taraqqiyoti uchun ahamiyati, shaxslararo idrok etish mexanizmi ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, A.I.Herbakov (Herbakov A.I. 1991. – 236 b), M.G.Davletshin, S.M.To‘ychiyeva (Davletshin M.G., To‘ychiyeva S.M. 2002. – 202 b), P.I.Ivanov, M.Y.Zufarova (Ivanov P.I., Zufarova M.Y. 1999. – 334 b), E.G‘.G‘oziyev (G‘oziyev E.G‘. 2010. – 488 b) kabi olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar mazkur maqolani tayyorlashda metodologik manba bo‘lib xizmat qildi.

Maqolani tayyorlashda tarixiylik va mantiqiylik tamoyillaridan; qiyosiy tahlil, analiz va sintez, umumlashtirish, dialektik metodlaridan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Idrokning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu jarayoniga butun psixik hayot mazmunining (ya’ni butun ma’naviy boyligining) ta’sir etishidir. Idrok jarayoni insonning turmush tajribasi bilan bevosita bog‘liq, binobarin, idrok jarayoniga bilim boyligi insonning ishonch, e’tiqodlari, dunyoqarashi, qiziqish va ehtiyojlari hamda kasbi – faoliyat sohasi katta ta’sir etadi.


Idrok harakatlari idrok jarayoni va inson faoliyati strukturasi kiradi. Idrok faol jarayon, shuning uchun u faoliyat bilan uzviy bogʻliqdir. Inson juda yoshligidanoq bilish va oʻrganishga qaratilgan harakatlarni amalga oshiradi. Axir bu dunyoda yashash uchun u bu dunyoni bilishi va u bilan muloqot qila olishi kerak.

Psixologiyada idrok jarayoniga insonning butun maʼnaviy hayot boyligini taʼsir etishini appersepsiya deb yuritiladi. Appersepsiya – idrok jarayonini shaxsning oldingi bilimlari, shaxsiy va ijtimoiy tajribalari, qiziqishlari, motivasiyasi, ehtiyojlari va odatlari, umuman ruhiy hayotining barcha mazmuni bilan belgilanishidir. Appersepsiya hodisasi tufayli odamlar oʻzaro idrokining mazmuni bilan bir-birlaridan muayyan darajada farqlanadilar, yaʼni ular aynan bir xil narsani oʻzining bilimi, saviyasi, nuqtai nazari, dunyoqarashi va ijtimoiy kelib chiqishiga asoslangan holda turlicha idrok qiladilar hamda aks ettiradilar. Masalan, daladagi gullab turgan paxtani oddiy bir talaba bilan tajribali agronom idrok qiladigan boʻlsa, albatta, ularning idroklari, yaʼni paxtani aks ettirishlari juda katta farq boʻladi. Talaba shunchaki, odatdagi oddiy bir paxta sifatida aks ettirsa, agronom paxtaning qanday navi, biologik rivojlanishining qaysi bosqichida ekanligi, taxminan qancha hosil berishi va shu kabilar bilan birga chuqur hamda juda toʻla idrok etadi. Pedagogik va psixologik bilimlarga ega boʻlgan tarbiyachi bilan bunday bilimlardan mutlaqo xabarsiz boʻlgan oddiy bir onaning bolalaridagi turli ehtiyojlar va harakatlarni idrok qilishlari oʻrtasida keskin farq mavjud. Masalan, ildiz tushunchasini bolalar oʻsimliklarning moddiy asosi sifatida, matematika sohasi vakillari sonlarning ildizi koʻrinishida, ijtimoiy nuqtai nazardan esa qarindosh-urugʻchilik shaklida koʻz oldiga keltiradilar. Appersepsiya tushunchasi baʼzi hollarda idrokning aniqligi, toʻliqligi, ravshanligi, predmetliligi, tanlovchanlik kabi sifatlarning maʼnosi oʻrnida qoʻllanilgan. Psixologik nazariyalariga koʻra, appersepsiya hodisasi barqaror va vaqtincha (muvaqqat) deb yuritiluvchi ikki turga ajraladi. Barqaror appersepsiya hodisasi shaxsning dunyoqarashi, qatʼiy maslagi, motivasiyasi, qiziqishi, bilim saviyasi, madaniy darajasi, xulq-atvori, maʼnaviyati va kasbiy tayyorgarligiga bogʻliq boʻlib, u oʻta murakkab tuzilishga egadir. Muvaqqat (vaqtincha) appersepsiya turi esa shaxsning faqat idrok qilishi jarayonidagi emotsional holatiga, yaʼni uning kayfiyati, ruhlanishi, shijoati, stress, affekt koʻrinishidagi his-tuygʻularida, ularning surʼati, davomiyligi tizimida oʻz ifodasini topadi.

Idrok xususiyatining yana bir oʻziga xos xususiyati uning konstantligidir. Idrokning konstantligi deganda biz idrok qilishdan ongimizda hosil boʻlgan obrazning real voqelikdagi bizga taʼsir etib turgan narsaning tabiiy holatiga har jihatdan mos boʻlishini tushunamiz (Блейхер В.М., Бурлачук Л.Ф. 2008. – 142 б). Maʼlumki, narsalarning hajmi shu narsalarni qanday masofadan (uzoqdan yoki yaqindan) his qilayotganimizga qarab oʻzgarib turadi. Lekin shunday boʻlsa ham idrok qilishdan hosil boʻlgan narsalarning ongimizdagi obrazlari hamma vaqt shu narsaning tabiiy holatiga mos boʻladi, masalan, katta yoʻlda ketayotib, uzoqdan gugurt qutichasidek kichkina boʻlib kelayotgan avtobusni koʻrib, “kichkinagina avtobus” kelyapti demaymiz. Uzoqdagi avtobusni idrok qilishda ongimizda hosil

bo'lgan obraz avtobusning real hajmiga teng bo'ladi. Yoki tepamizdan katta balandlikda uchib ketayotgan samolyotlarini ko'rib, kichkina samolyotchalar uchib ketishayapti, deb aytmaymiz. Biroq shu narsani aytish kerakki, idrokning konstantligi xususiyati ham odamning turmush tajribasi bilan bevosita bog'liqdir. Masalan, umrida hech qachon hozirgi zamon katta passajir samolyotlarini ko'rmagan odam baland uchib ketayotgan samolyotni idrok qilib, uning real hajmini – qanchalik kattaligini tasavvur etishi birmuncha qiyin. Ko'rishda masofa, rang, shakl, hajm konstantliklari ro'y beradi. Qalamni 20 va 1sm masofadan idrok qilish, doskani 1 va 10 m masofadan idrok qilish, oq qog'oz yoki quyoshda, xona ichida, koridorda ham oq idrok qilinadi.

Darhaqiqat, kosaga to'g'ridan qarajak, shakli dumaloq ekanini ko'ramiz, ammo ana shu kosaga yondan qarajak, qarash burchagi o'zgarganligidan uning ko'z to'r pardasiga tushgan surati tuxumsimon cho'zinchoqroq shaklda bo'ladi. Biz esa doimo uni dumaloq shaklida idrok qilamiz. Bu safar ham narsaning idrok qilinayotgan shakli, uning haqiqiy, obyektiv shakliga muvofiq bo'lib, doimo to'g'ri idrok qilinadi. Ayni shu kabi konstantlik ranglarni sezishda ham ro'y beradi. Yorug'lik darajasi turli xil bo'lganda ham narsalarning rangi, narsalar qaytargan yorug'lik nurlarining fizik tarkibi o'zgarishiga qaramay, biz doimo bir tusda idrok qilaveramiz. Masalan, oq qog'oz elektr chirog'ining sarg'ish nurida ham, yoki u yashil barglar soyasida yotsa ham baribir u bizga oppoq bo'lib ko'rinaradi. Holbuki, bu ikki vaziyatda ham qog'oz yuzidan qaytariladigan nurlarning fizik tarkibi o'zgaradi. Yozuv qog'ozi qosh qoraygan paytda ham oppoq, qora bosma harf bilan yozilgan xat esa quyosh yorug'ida ham qop-qora bo'lib ko'rinaradi, aslida esa qosh qoraygan paytda qog'oz yuzidan qaytarilgan nurlarning kuchi, quyosh yorug'ida bosma xatdan qaytarilgan nurlarga qaraganda zaifroqdir. Ma'lumki, bir parcha ko'mirdan tushki vaqtda qaytariladigan nurlar miqdori tong yorishish paytida bundan qaytariladigan nurlar miqdoriga qaraganda bir necha marta ko'pdir. Holbuki, ko'mir tush vaqtida ham qop-qora, bo'r esa tong otarda ham, g'ira-shira paytda ham, hatto tunda ham, baribir oppoq bo'lib ko'rinadi.



Konstantlik hodisasi shuni ko'rsatadiki, biz narsalarni ko'rib turgan paytimizda, ularning ko'z to'r pardasiga tushgan suratiga aynan muvofiq holda ko'rmay, balki shu narsalar haqiqatda qanday mavjud bo'lsa, shu holda ko'ramiz.

Idrokning konstantligi odamning tajribasi jarayonida, amaliy faoliyatida vujudga kelib, mustahkamlanadi.

Konstantlik hodisasida odam narsalarni koʻz shuur pardasiga tushgan suratiga aynan muvofiq koʻrmaydi, balki ular haqiqatdan qanday mavjud boʻlsa, shunday koʻradi. Bu kishining tajribasi, ommaviy faoliyati jarayonida vujudga keladi. Atrofimizdagi dunyo, uning obyektlari va hodisalari, sezgi organlariga taʼsir qilib, bizga ularning shakli, rangi, hidi haqida maʼlumot yuboradi. Ushbu maʼlumotni tahlil qilib, biz atrofdagi dunyoning ushbu obyektlari va hodisalari haqida tasavvur hosil qilamiz, boshqacha qilib aytganda, uni idrok etamiz. Shunday qilib, idrok – bu atrofimizdagi dunyodan oladigan sezgilar toʻplami. Ushbu hislar orqali biz obyektlar va hodisalarni idrok etamiz, atrofimizdagi dunyoni bilib olamiz. Toʻgʻri, aniqroq aytganda, idrok shunchaki biron-bir narsadan oladigan sezgilar yigʻindisi emas, balki oʻtmishdagi tajribalarni, fikrlash, his-tuygʻular, his-tuygʻular ishiga asoslangan murakkab bilish jarayoni hisoblanadi (Блейхер В.М., Бурлачук Л.Ф. 2008. – 142 б). Bu bizning sezgilarimizga taʼsir qiladigan obyektiv voqelik obyekt yoki hodisasining hissiy aksidir. Biror narsani idrok etish orqali biz idrok etayotgan narsa maʼlum bir obyektning xususiyatlari yoki fazilatlarini ekanligini tushunamiz. Shuning uchun, idrok etishda, bizga taʼsir qiladigan va ushbu obyektning tasvirini yaratadigan obyektning xususiyatlari, chunki biz bu xususiyatlarni obyektga bogʻlaymiz. Shunday qilib, idrok voqelikni bilish shakliga aylanadi.

Idrok perseptiv harakatlarining shakllanishi oʻquv jarayonida sodir boʻladi. Ularning rivojlanishi uch bosqichga boʻlingan: birinchi bosqichda idrok harakatining shakllanishi sodir boʻlib, u bolaning notanish narsalar bilan amaliy harakatlarni bajarishidan boshlanadi. Natijada perseptiv vazifalarning shakllanishi sodir boʻladi - obyektning adekvat tasvirini shakllantirish, keyinchalik u sensorli standartga aylanadi. Ikkinchi bosqichda hissiy jarayonlarning qayta tuzilishi, ular amaliy faoliyat taʼsirida perseptiv harakatlarga aylanadi. Harakatlar retseptor apparatlari yordamida amalga oshiriladi, bolalar obyektlarning fazoviy xususiyatlari bilan tanishadilar.

Uchinchi bosqichda tashqi harakatlarni qisqartirish jarayoni mavjud. Ular yashirin boʻlib, ong va ong darajasida davom etadilar. Tashqi idrok jarayoni bir lahzalik ixtiyoriy harakatga aylanadi.

Bu vaqtga kelib bola shakllangan hissiy standartlar tizimi (sezgi sifatlarining ijtimoiy rivojlangan tizimlari, masalan, geometrik shakllar tizimi va boshqalar) ularning yordami bilan hissiy-perseptiv harakatlar oʻzgaradi. U tasvir yaratish jarayonidan identifikatsiya jarayoniga oʻtadi (Gʻoziyev E. 2002. – B. 90).

Hissiy va aqliy bilish jarayonlaridagi tasavvur hamda tushunchaning nisbati shundaki, tasavvur subyektiv xarakterga ega boʻlsa, tushuncha obyektivdir. Masalan, “avtomashina” tushunchasi umumiy holda uzoqni yaqin, ogʻirni yengil qilish vositasini anglatadi, bu soʻz tasavvurda har bir shaxsning oʻz dunyoqarashi, estetik didi, maʼnaviy olamidani kelib chiqib turlicha anglanadi, tasavvur qilinadi. Jumladan, kimdir oq, zamonaviy krossoverni, aytaylik “Kia” yoki “Gelik” rusumidagi avtomashinani tasavvur qilsa, yana kimdir davlat belgisi 777 boʻlgan

qora-qizil “Gentra”ni, yana birov esa o‘zining yoshlik xotiralarini yodga soladigan ko‘k “Jiguli” avtomashinasini tasavvuriga keltiradi.

Idrok murakkab aqliy jarayon deb ham ataladi, chunki idrok etilayotgan obyekt yoki hodisaning har bir qismi hech bo‘lmaganda ma’lum darajada, lekin bu idrok nima, qanday boshqa narsalar yoki hodisalar bilan o‘ralganligiga bog‘liq. Shuning uchun, idrok etishda obyektning haqiqiy qiyofasini buzishi mumkin bo‘lgan turli xil illuziyalar paydo bo‘lishi ham mumkin. Shunday qilib, ko‘pincha biz obyektning kattaligi illyuziyasiga duch kelamiz, agar u bizga u bilan o‘ralgan narsaga qarab kichikroq yoki kattaroq bo‘lib tuyulsa. Xuddi shu narsa parallel yoki parallel bo‘lmagan chiziqlar illyuziyasida ham sodir bo‘ladi. Shunday qilib, obyektning obyektiv idrok etish uchun uni idrok etishning barcha shartlarini, uning atrofini, qismlarining o‘zaro ta‘sirini hisobga olish kerak bo‘ladi.

Idrok harakatining 4 darajasi mavjud bo‘lib, ular:

- a) aniqlash (rag‘batlantirishni aniqlash bilan tavsiflanadi);
- b) farqlanish (bu darajada idrok perseptiv obrazning keyingi shakllanishi bilan yuzaga keladi);
- c) taqqoslash yoki identifikatsiya qilish (bu darajada idrok qilinadigan obyekt xotirada saqlanadigan tasvir bilan identifikatsiya qilinadi; yoki bir nechta obyektlarni taqqoslash mavjud);
- d) tanish (tegishli standart xotiradan olinadi va obyekt toifalarga ajraladi).

Faoliyat jarayonida inson doimo vaziyatni eng adekvat aks ettirishni idrok etishni talab qiladigan ba’zi vazifalarni hal qilishi lozim bo‘ladi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun insonning idrok tizimlari taqdim etiladi. Bunga quyidagilar kiradi:

- vizual tizim;
- eshitish;
- mushak-skelet;
- xushbo‘y-ta‘m;
- vestibulyar.

Bularning barchasi miyani insonning ham jismonan, ham ruhiy jihatdan normal ishlashi va rivojlanishi uchun foydalaniladigan zarur ma’lumotlar bilan ta’minlaydi (G‘oziyev E. 2002. – B. 95).

Olimlar ko‘p yillar davomida insonning oliy ruhiy imkoniyatlarini (fikrlash, xotira, harakatlarning o‘zboshimchaligi) o‘rganib kelishdi. Idrok va faoliyat tizimining inson tafakkurining rivojlanishi bilan o‘zaro bog‘liqligi isbotlandi. O‘z navbatida, fikrlash insonning holatiga, uning qobiliyatlari va imkoniyatlariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Idrok insonning eng yuqori ruhiy funksiyalarini bildiradi.

Yashash uchun inson doimo atrofdagi voqelikni aks ettirishi va idrok etilgan ma’lumotlarga munosabat bildirishi kerak. Idrok shunchaki shaxsni va shu bilan birga voqelikning adekvat aksini ta’minlaydi. Bu sezgi muammolarini hal qilish uchun ayniqsa muhimdir. Sezish jarayonida sezgi harakatlari muhim rol o‘ynaydi, ular inson psixikasining har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi.

Soddaroq qilib aytganda, sog‘lom va baxtli bo‘lish uchun odam qandaydir faoliyat bilan shug‘ullanishi kerak. Miya shunday yaratilganki, u doimo yangi

ma'lumotlarni qayta ishlash va o'zlashtirishi kerak, aks holda u "dangasa bo'lishni" boshlaydi. "Dangasa miya" esa demans rivojlanishi uchun birinchi qadamdir.

Faxrul Musuliy (r.a) shogirdlaridan so'raydi: "Agar bemor taom, suv hamda dori iste'mol qilmasa o'ladimi?" "o'ladi", deyishdi. "Inson qalbi (ongi) ham shunday, agar 3 kun ilm va hikmatdan man etsangiz u ham o'ladi" dedilar (Is'hoqjon Muhammadjon o'g'li. 2019. – B.63).

Bugungi axborot oqimi jadallashgan davrda har bir zamonaviy inson har qanday ma'lumotni bemalol olishga shunchalik odatlandiki, bu natija deb o'ylamaydi. Ko'p sonli odamlarning faoliyati ularning zamonaviy jamiyat rivojiga qo'shgan hissasi juda katta. Inson qila oladigan va biladigan hamma narsa nafaqat uning xizmati, balki butun jamiyat mulkidir.

Idrok – bu maxsus mashg'ulot va amaliyot jarayonida o'zlashtiriladigan perseptiv harakatlar tizimidir. Bola hissiy me'yorlarni faqat unga rahbarlik qiladigan va unga obyektlar va vaziyatlarning eng muhim xususiyatlarini aniqlashga yordam beradigan kattalar yordami bilan egallashi mumkin. Bu voqelikni tahlil qilish va bolaning shaxsiy hissiy tajribasini tizimlashtirish uchun juda muhimdir.

Bolalar o'z turi bilan muloqot qilishdan mahrum bo'lgan holatlar mavjud. Bunga hayvonlar tomonidan tarbiyalangan "Maugli" misol bo'la oladi. Ularni insoniyat jamiyatiga qaytargandan keyin ham insoniyat jamiyatiga moslashishi kamdan-kam hollarda uchraydi.

Shaxslararo idrok etish mexanizmi bir shaxsni boshqa shaxs tomonidan aniqlash va baholash usulidir. Ijtimoiy jamoalar faoliyatining samaradorligi, ana shu jamoa a'zolarining bir-birini munosib idrol qila olishlari bilan belgilanadi. Buning faol ko'rinishda bo'lishligi xalqning farovonligi hamda davlatning taraqqiyotini ta'minlaydi.

Amodal idrok – bu qisman idrok etilganda, jismoniy tuzilish haqida to'liq tasavvurni ifodalash uchun ishlatiladigan atama. Masalan, jadval faqat bir qismi ko'rinadigan bo'lsa ham, to'liq hajmli tuzilma sifatida qabul qilinadi; ichki hajmlar va yashirin orqa yuzalar faqat yaqin yuzalar ko'rinishiga qaramasdan seziladi va atrofimizdagi dunyoni bo'shliq sifatida qabul qilinadi, garchi uning bir qismi istalgan vaqtda ko'rinsa ham. Nazariyaning shakllanishi belgiyalik psixolog Albert Michotte va italiyalik psixolog Fabio Metelliga tegishli bo'lib, ularning ishlari so'nggi yillarda E.S.Reed va gestaltistlar tomonidan ishlab chiqilgan.

Modali tugatish – bu xuddi shunday hodisa, bunda shakl boshqa chizilmagan bo'lsa ham, uni boshqa shakllar berkitadi. Masalan, Kanizsa uchburchagidagi uchta diskni yopib qo'ygan uchburchak va Koffka xochining turli xil versiyalarida paydo bo'lgan doiralar va kvadratlar.

XULOSA

Insonning bilish jarayonida idrok bilan birga bu jarayonning boshqa bosqich va xususiyatlari ham ishtirok etadi. Xususan, xotira va tafakkur. Xotira bevosita inson bilimi darajasi bo'lib, davr va obrazlarni tasavvur qilishda inson idrokining

o'zagini tashkil etadi. Masalan, tarix voqealaridan lozim darajada xabardor insonning bugungi davrning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy jarayonlarini, shuningdek ijtimoiy hayot u yoki bu kishisi faoliyatining asl maqsadini tasavvur etishi, shunga munosib tafakkur qila olish imkoniyati ancha keng bo'ladi. Shu boisdan ham ta'lim muassasalarida yoshlarning har tomonlama keng dunyoqarashli, tarixda amal qilgan g'oya va qarashlar, madaniyatlar bilan yaqindan tanishtirishga alohida e'tibor beriladi. Falsafa fani doirasida muayyan bir masalaga, avval ko'p tomonlama yondashib so'ngra fikr yuritish, aniq harakatga kelishga undashdan maqsad ham shunda. Nisbiylik nazariyasini, istisno qoidasini bundan 119 yil avval A.Eynshteyn kashf qilgan bo'lsa, undan qariyb 25 asr muqaddam barcha Geraklit olamning nisbiyligini tan olgan. Bugungi kun insonlardan ana shu nisbiylikni unutmagan holda atrof-olam voqea-hodisalarini idrok etishni talab qilmoqda.

Idrokning davr va obrazlarni tasavvur qilishdagi roliga yorqin misol qilib inson bir kitobni 20 yoshida birinchi marta, 30 yoshida qayta, 40 yoshida yana qayta o'qisa har safar yangidan-yangi turlicha mazmun-mohiyatni kashf etishi holatini keltirish o'rinli, negaki buni juda ko'pchilik o'z amaliyotida sinab ko'rgan. Insonlarda, ayniqsa yoshlarda sog'lom idrok eta olish, sog'lom tafakkur yurita olish ko'nikmalarini tarbiyalash – ta'lim tarbiya tizimimizning eng asosiy vaziflaridan hisoblanadi.

BIBLIOGRAFIYA

1. Herbakov A.I. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan praktikum. – T., 1991. – 236 b.
2. Davletshin M.G., To'ychiyeva S.M. Umumiy psixologiya. – T.: TDPU, 2002. – 202 b.
3. Ivanov P.I., Zufarova M.Y. Umumiy psixologiya. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 1999. – 334 b.
4. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010. – 488 b.
5. Блейхер В.М., Бурлачук Л.Ф. Психологическая диагностика интеллекта и личности. – К.: Высшая шк., 2008. – 142 б.
6. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. Darslik. I, II kitob. – T., 2002. – B.90.
7. Is'hoqjon Muhammadjon o'g'li. Ta'lim va tarbiya. – Toshkent: Hilol, 2019. – B.63.

**FALSAFA VA HAYOT//
ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ//
PHILOSOPHY AND LIFE**

Tahririyat manzili	Адрес редакции	Editors Address
100085, O'zbekiston Toshkent, Sergeli tumani, Mehrigiyo ko'chasi -6	100085, Узбекистан, Ташкент Сергелинский район, Улица Мехригиё- 6	100085, Uzbekistan Tashkent Sergeli, Mehrigiyo street-6

Veb-sayt: <http://tadqiqot.uz/wp-content/uploads/2018/03/01/03pdf>
www.tadqiqot.uz ; E-mail: falsafa-h@mail.ru, Shermuhamedova_n@mail.ru
Telefon: (+99890) 358-62-70

MUASSISLAR:	УЧРЕДИТЕЛИ:	FOUNDERS:
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Imom al Buxoriy xalqaro ilmiy - tadqiqot markazi O'zbekiston falsafa jamiyati OOO tadqiqot	Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека Международный научно- исследовательский центр Имом ал Бухори при кабинете Министров Республики Узбекистан Философское общество Узбекистана OOO tadqiqot	The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek International Research Center Imom al Bukhori at the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan Philosophical Society of Uzbekistan OOO tadqiqot

Tahririyat sifatli maqolalarni tanlash huquqini saqlagan holda taqdim etilayotgan materiallarning aniqligiga javob bermaydi.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Редакция оставляет за собой право отбора качественных статей и не несет ответственности за достоверность информации в представленных материалах.

The editors reserve the right to select quality articles and is not responsible for the reliability of the information in the submissions.

Подписано для сайта
Тошкент шаҳри

Заказ №.